



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 3/2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 9, НОМЕР 3/2

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 9, ISSUE 3/2



ТОШКЕНТ-2026

**Бош мухаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош мухаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат техника университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат университети

**Махкамова Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодири Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ермегов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Андижон давлат университети

**Рашидов Ойбек Расулович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Озарбайжон давлат университети

**Саипова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайдон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Курбанов Бахтияр Журабаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Наманган давлат университети

**Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
*Масъул котиб*

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Баҳадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Юсупов Аҳмеджон Шоназарович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Urganch davlat universiteti

**Тиллажаева Хуршида Джумаваевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Тошкент давлат техника университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
*Масъул котиб*

**Исоқов Бахтиёр Робидинович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Наманган давлат университети

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

**Турсунова Юлдуз Бобоқулловна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Азаматова Гулмира Байирбековна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Каримжонов Жасурбек Мухторжонович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Ўзбекистон Миллий университети

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


<b>1. Камола Саипова</b> ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПОТряСЕНИЯ 1917 ГОДА И ИЗМЕНЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО СОСТАВА НАСЕЛЕНИЯ ТУРКЕСТАНА.....	5
<b>2. Аваз Ерметов</b> ЎЗБЕКИСТОН ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИНИНГ СОВЕТ БОШҚАРУВ ТИЗИМИДА ТУТГАН ЎРНИ ВА ФАОЛИЯТИДАГИ ХУСУСИЯТЛАР (XX АСРНИНГ 20-30 ЙИЛЛАРИ МИСОЛИДА).....	15
<b>3. Raximjon Xasanov</b> YOSHLAR MA'NAVİYATI VA MILLIY TARBIYA.....	22
<b>4. Alibek Bengmatov</b> XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA JANUBIY O'ZBEKISTONDA SPORT KADRLARINI TAYYORLASH: SIYOSIY, IJTIMOIIY VA INSTITUTSIONAL OMILLAR TAHLILI.....	27
<b>5. Ahmad Ergashev</b> YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASI: FUTBOL INFRATUZILMASINI MODERNIZATSIYALASHDA HUQUQIY ISLOHOTLARNING O'RNI.....	36
<b>6. Baxtiyor Nazirov</b> SURXON VOHASIDA XALQ MILLIY O'YINLARI GENEZISI VA TARIXIY-ETNOLOGIK TAVSIFI.....	45
<b>7. Axmedjon Yusupov, Mohira Abdullayeva</b> O'RTA OSIYO KO'CHMANCHI XALQLARI HARBIY BOSHQARUVIDA QUROL YAROG'LARNING O'RNI (ILK SAK-MASSAGETLAR MISOLIDA).....	54
<b>8. Абдухолик Мингнарoв</b> XX АСР БОШЛАРИДА ТУРКИСТОНДАГИ СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР ВА ЖАДИДЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ МИЛЛИЙ МАТБУОТДА ЁРИТИЛИШИ.....	60
<b>9. Людмила Соколова</b> ОСОБЕННОСТИ ПРОИЗВОДСТВА ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ВЫШИВКИ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ УЗБЕКИСТАНА НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ.....	67
<b>10. Baxtiyor Xalmuratov</b> O'ZBEK XALQINING ORNITOLOGIK QARASHLARI: TARIXIY VA ZAMONAVIY TAHLIL.....	72
<b>11. Jamshid Peremkulov</b> XIX-ASR IKKINCHI YARMIDA TOSHKENT SHAHRI MAHALLALARI TARIXI.....	78
<b>12 Anvarjon Erqo'ziyev</b> XIV – XIX ASRLARDA O'RTA OSIYONING XALQARO SAVDODAGI ISHTIROKI.....	86



**Baxtiyor Xalmuratov,**  
O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari qo‘mita huzuridagi  
Diniy-ma’rifiy sohada malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti  
Namangan viloyati mintaqaviy filiali  
“Ijtimoiy va mutaxassislik fanlari” kafedrasida dotsenti,  
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

### **O‘ZBEK XALQINING ORNITOLOGIK QARASHLARI: TARIXIY VA ZAMONAVIY TAHLIL**

**For citation:** Bakhtiyor Khalmuratov. ORNITHOLOGY VIEWS OF THE UZBEKI PEOPLE: A HISTORICAL AND MODERN ANALYSIS. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 3.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19845525>

#### **ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada o‘zbek xalqining qush kulti bilan qarashlari va marosimlari tahlil qilingan. Unda hozirgi ekologik muammolar sharoitida tabiat olamidagi muvozanatning buzilishi, hayvonot va qushlar dunyosiga bo‘lgan salbiy munosabatning shakllanishi natijasida yuz bergan muammolar tarixiy-etnografik rakursga ko‘ra yoritib berilgan. Shuningdek, o‘zbek xalqining ornitologik bilimlari va tasavvurlarining tarixiy ildizlariga e’tibor qaratilgan.

**Kalit so‘z va iboralar:** O‘zbek xalqi, tabiat olami, qush kulti, ekologik muammolar, islom, zardushtiyolik, “Avesto”, Qur’oni Karim, laylak, turna, qarg‘a, hakka, folklor, urbanizatsiya.

#### **Бахтиёр Халмуратов,**

доцент кафедры «Социальных и специализированных наук»  
Института повышения квалификации и переподготовки в религиозно-  
образовательной сфере при Комитете по делам религий Республики Узбекистан  
Наманганском региональном отделении,  
доктор философии (PhD) по историческим наук

### **ОРНИТОЛОГИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ УЗБЕКСКОГО НАРОДА: ИСТОРИЧЕСКИЙ И СОВРЕМЕННЫЙ АНАЛИЗ**

#### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье анализируются взгляды и ритуалы узбекского народа, связанные с культом птиц. С историко-этнографической точки зрения освещаются проблемы, возникшие в результате нарушения баланса в природном мире и формирования негативного отношения к животному и птичьему миру в современных экологических условиях. Также уделяется внимание историческим корням орнитологических знаний и представлений узбекского народа.

**Ключевые слова и фразы:** узбекский народ, мир природы, культ птиц, экологические проблемы, ислам, зороастризм, «Авеста», Священный Коран, аист, журавль, ворона, хакка, фольклор, урбанизация.

**Bakhtiyor Khalmuratov,**

Associate Professor of the Department of "Social and Specialized Sciences" of the Institute for Advanced Training and Retraining in the Religious and Educational Spheres under the Committee for Religious Affairs of the Republic of Uzbekistan Namangan Regional Branch,  
Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences

## ORNITHOLOGY VIEWS OF THE UZBEKI PEOPLE: A HISTORICAL AND MODERN ANALYSIS

### ABSTRACT

This article analyzes the views and rituals of the Uzbek people on the cult of birds. It highlights the problems that have arisen as a result of the disruption of the balance in the natural world and the formation of a negative attitude towards the animal and bird world in the current environmental problems from a historical and ethnographic perspective. Attention is also paid to the historical roots of the ornithological knowledge and imagination of the Uzbek people.

**Index Terms:** Uzbek people, natural world, bird cult, ecological problems, Islam, Zoroastrianism, "Avesta", Holy Quran, stork, crane, crow, hakka, folklore, urbanization.

**Kirish.** Insoniyat taraqqiyoti, urbanizatsiya jarayonining tezlashishi, globallashuvning jadallashuvi Ona sayyoramiz xavfsizligiga rahna solib, bir qator masalalar bilan birgalikda ekologik muammolarni ham keltirib chiqardi. Atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazayotgan ekologik xavf, oʻrni kelganda, hattoki yadro talofati va terrorizmdan ham dahshatliroq boʻlib, Yer yuzidagi barcha xalqlarni tobora bu haqda chuqurroq oʻylashga majbur etmoqda. Butunjahon yovvoyi tabiat (WWF), Global Footprint Network jamgʻarmalari va Londonning zoologik jamiyati mutaxassislari hamkorlikda oʻtkazgan tadqiqot natijalariga koʻra, 1970-yildan buyon Yerdagi yovvoyi hayvon va qushlarning soni 3,43 ming turga, tirik sayyoraning indeksi esa 52% ga kamaygan, yaʼni havo va quruqlikda yashaydigan jonivorlar turi 76% ga, yer ustida yashaydiganlar va suvda istiqomat qiladiganlar soni 39% ga qisqrgan. Har yili inson faoliyati oqibatida 11 mln. gektar tropik oʻrmonlar kesilib, nobud boʻlmoqda [1. B. 1].

**Metodlar:** Mazkur maqolada etnografiya fanida qabul qilingan kuzatuv, suhbat, intervyu, tarixiylik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan holda oʻzbek xalqining etnoekologik madaniyatida muhim oʻrin tutgan ornitologik qarashlar va marosimlar tahlil qilingan.

**Oʻrganilganlik darajasi.** Maʼlumki, inson va hayvon oʻrtasidagi munosabatlar qadimdan barchaga birdek taalluqi boʻlib, unga doir qator fanlararo tadqiqotlar bajarilgan. Jumladan, etnologiya, folklorshunoslik, dinshunoslik va antropologiya boʻyicha olib borilgan tadqiqotlarda hayvonlarga munosabatining eʼtiqodiy, yuridik, mifologik, pedagogik, etnoekologik hamda ruhiy jihatlari tadqiq etilgan [2. B. 3].

**Tadqiqot natijalari.** Tarixdan maʼlumki, oʻzbek xalqning yer, suv, havo, olov va tabiatga ongli ravishdagi munosabati, ularni eʼzozlash bilan bogʻliq qadimiy urf-odatlarini hamda marosimlarining genezisi uzoq oʻtmishga borib taqaladi. Ularni jiddiy oʻrganishni ekologik muammolar global xavfsizlikka tahdid solayotgan hozirgi davrning oʻzi ham taqozo etmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev toʻgʻri, oʻz oʻrnida haqli ravishda eʼtirof etganidek: "Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat maʼmuriy yoʻl bilan hal etib boʻlmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin [3. B. 570].

Hozirgi kunda dunyo mamlakatlarida yovvoyi tabiatni asrash, aholining jonivorlarga nisbatan boʻlgan munosabatini tubdan yaxshilash, hayvonot olamiga doir xalq tasavvurlarini tadqiq etish jahon hamjamiyatining dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Shu sababli, qushlar bilan bogʻliq tasavvurlarni kompleks oʻrganish va keng targʻib qilishga qaratilgan ilmiy izlanishlarning ahamiyati yildan-yilga oshib bormoqda.

Zardushtiylarning tasavvurida ilohiy qushlar ham mavjud boʻlib, ular maʼbud hamda maʼbudalar qatoridan oʻrin olgan. Bular – Semurgʻ va Humo qushlaridir. Bundan tashqari,

Senmurv, Apaosha, Barvi, Zahhk, Aji-Daxaka kabi ijobiy hamda salbiy mavjudotlar ham ushbu asardan o‘rin olgan [4. C. 122–123].

Zardushtiylikda ilohalarning bunday qiyofalarga kira olishi o‘ziga xos mifologik zanjirni tashkil etadi va panteondan muham o‘rin egallagan. Ushbu jonivorlar tizimi zardushtiylikda besh qismga bo‘linadi: suvda, yer ostida, osmonda yashovchilar va uy hayvonlari. Uy hayvonlarini ular “Gav” deb umumlashtirganlar [5. B. 85].

Turkiy qavmlarda ishlatilgan tamg‘alarda asosan, qo‘chqor shoxi, echki, buqa va qushlar tasvirlangan [6. C. 160]. O‘z navbatida shuni ham ta’kidlash kerakki, mintaqaga islom dini kirib kelishi bilan zoomorfologik bezaklardan faqatgina qush tasviri yaxshi saqlanib qolgan [7. C. 783], qolganlari esa islmiy bezaklarga aylangan. Shu boisdan ham qush tasviridagi hunarmandchilik ashyolari bezak vazifasida hamon xizmat qilib kelmoqa. T. G. Basangovanning ta’kidlashicha, turkiy xalqar afsona va ertaklari kumulyativ janrga taalluqi bo‘lib, ularning asosiy qahramonlari hayvonlar hamda qushlar hisoblanadi [8. C. 25]. Aynan ushbu turkumga “Kulrang chumchuqa”, “Bo‘ri va tulki”, “Oq va qora sichqon haqida”, “Ingichka qanotli ko‘rshapalak haqida”, “Qaldirg‘ch qanday foyda keltirganligi xususida”, “Nima uchun quyoning dumi qora” kabi xalqertaklarini kiritish mumkin.

Qr‘oni Karimda barcha jonzot va qushlar insonlar kabi “ummat” ekanligi ta’kidlanadi. Aynan shu ta’kid insonni o‘zi kabi ummat bo‘lgan barcha jonlilarga nisbatan mehribon bo‘lishga undaydi. Bu xususida Alloh Taolo “An‘om” surasida shunday marhamat qiladi: “Yer yuzidagi yuruvchi har bir jonzot va ikki qanoti ila uchuvchi qush borki, hammasi siz kabi ummatlardir” [9. B. 38].

Farg‘ona vodiysining tog‘li hududlarida tog‘ echkisi bilan bog‘liq qarashlar saqlanib qolgan [10. Dala yozuvlari. Andijon viloyati Buloqboshi tumani Nayman qishlog‘i. 2024- yil]. Aholi orasida hozirgacha tog‘ echkisi “buzruk” deb ataladi. Tog‘ echkisiga bunday munosabat ilk o‘rta asrlardagi turkiylarda shakllangan kiyik bilan bog‘liq qarashlari ta’siri bo‘lishi mumkin. Chunki, mahlliy aholi kiyikni yana “taka” deb ham ataydi. Qolaversa, musicha hamda laylak kabi ayrim qushlarni avval inson bo‘lganligi xususidagi qarashlar ham mavjud bo‘lgan.

Qadimdan qushlarning pati ham asrovchi kuchga egaligi xususidagi qarashlar shakllangan bo‘lib, “Avesto Yasht”ida boyo‘g‘i qush pati insonlarni davolashi yoki omad keltirishi mumkinligi qayd etilgan [11. B. 100]. Qozoqlarda esa uning patini toychoqning boshiga qadab qo‘yish an’anaga aylangan. Ularning ishonishicha, ushbu pat ularni nazar hamda boshqa yovuz kuchlardan himoya qiladi [12. Dala yozuvlari. Andijon viloyati Buloqboshi tumani. 2018-yil].

Burgut pati ham asrovchi tumor sifatida ishlatilgan va bolalarning kiyimlari ikki yelkasiga burgut patini tikib qo‘yish odati mavjud bo‘lgan, bu bilan bolalarni balo-qazodan saqlash ko‘zda tutilgan. To‘ybolalarning do‘ppilariga ham asosan, burgut pati tikib qo‘yilgan. Avvallari beshikka bo‘rining tishi va tirnog‘dan tashaqri burgut pati, otning yoli kabi narsalarni tumor sifatida osib qo‘yish shart bo‘lgan.

Qushlar orasidagi insonlar hamroh qaldirg‘och bo‘lib, u “qirq yillik qadrdon” deyiladi. Qushlar har yili erta bahorda uchib kelganida va kech kuz safarga yana otlanganida, ijro etuvchi kuyi aholi orasida alohda o‘ringa ega. Odamlar “qaldirg‘ochning so‘nggi qo‘shigi’ga o‘zgacha nigoh bilan qaraydilar. Unga ko‘ra, qush insonlarga o‘tgan yil uchun minnatdorchilik bildiradi, o‘zi yashagan xonadonga qut-baraka tilaydi va keyingi yili qaytib kelishga va‘da beradi [13. Dala yozuvlari. Jizzax viloyati Zomin tumani Kultepa qushlog‘i. 2025-yil].

Tadqiqotchi A. Azizovning qayd etishicha, Farg‘ona viloyati Oltiariq tumani Poloson qishlog‘i aholisi o‘rtasida ayrim qushlarga nisbatan o‘zgacha qarash shakllangan va yillar davomida o‘zgarishlarga uchrab, xalq tajribasini ifoda etuvchi merosga aylangan. Xalq orasida “o‘g‘ri qush” sifatida tanilgan hakka (“olahakka” deb ham ataydilar) bilan bog‘liq qarashlar ham tahsinga sazovordir. U o‘zining aqli va ayyorligi bilan boshqa qushlardan ajralib turadi. Xalq orasida ayrim odamlarga nisbatan ham ushbu qush nomi laqab sifatida hozirgacha ishlatiladi. Ushbu qush voqea-hodisalarni oldindan payqashiga ishonch shakllangan. Unga ko‘ra, agar hovliga hakka kelib sayrasa, mehmon keladi, deb tasavvur qilganlar [14. B. 29].

Aholini himoya qiluvchi qushlardan yana biri laylakdir. Vodiyliklar qarashlariga ko'ra, laylak ilonlarni ovlab, odamlarni ulardan himoya qiladi. Xalqona qarashlariga ko'ra, ilon ko'rinishiga jinlar kirib olgan bo'lishi mumkin va shuning uchun ham laylak alohida ahamiyatga ega bo'lgan.

Qushlar ichida "baxt qushi" ham bo'lib, u insonga hamrohlik qilgan ekan. Odamlar tilak bildirayotganlarida, "baxt qushi hamrohing bo'lsin!" yoki kimnidir muvaffaqiyati to'g'risida fikr bildirganda, "baxt qushi boshiga qnibdi" – deb e'tirof etadilar [15. Dala yozuvlari. Qraqpog'ston Respublikasi To'rtko'l tumani Miskin qishlog'i. 2023-yil].

Qushlarning patlaridan balo-qzodan saqash va ruharni qvish mumkinligiga ishonilgan. Masalan, Zardushtiylikda qush pati yordamida davolash amallari bajarilgan. Keyinchalik qushlarning patlari tumor sifatida bolalarning ko'ylaklariga tikib qo'yiladigan bo'ldi. Bunday odat nafaqt o'zbeklar, qolaversa, O'rta Osiyoning boshqa xalqlarida ham mavjud bo'lgan. Xususan, turkmanlarning go'klan va boshqa etnik guruhlarida bolalarning do'ppilariga ukki patini taqib qo'yish odati keng tarqalgan [16. C. 184]. Yaqin-yaqinlarga qadar qush patini bolalarning bosh kiyimlari yoki insonning ikki yelkasiga taqib qo'yish odat tusiga kirgan edi. Axborotchilarning ta'kidlashlariga qaraganda, turkmanlarda burgut patidan shunday maqsadda keng foydalanilgan. Qush patining tumor sifatidagi xususiyati odamlardan tashqari uy hayvonlari yoki turar joyni yomon ko'zlardan saqlash uchun ham foydalanilgan. Xususan, otning yoliga shunday tarzda qush patidan tumorlar osib qo'yish odati keng tarqalgan.

Farg'ona vodiysi aholisining dafn marosimlari bilan bog'liq tasavvurlarida qush siymosi katta ahamiyatga ega bo'lgan. Chunki, vodiy aholisi orasida qushlarni vafot etgan kishilar ruh, degan qarash mavjud bo'lgan [17. Dala yozuvlari. Farg'ona viloyati Dang'ara tumani Tumor qishlog'i. 2024 yil]. Bundan tashqari, vafot etgan kishining ruh sifatida kapalakning bir turiga ham qraladi.

Farg'ona vodiysi aholisi tasavvurlariga ko'ra, vafot etganlar o'z qarindoshlari va avlodlarini xabar olgani qush yoki kapalak tarzida kelib turadi. Ularning fikricha, marhumlar "arvoh kapalak" qiyofasida uchib keladi, bunday ishonch ko'rinishi toshkentliklar xotiralarida ham saqlanib qolgan [18. B. 42–43]. Chunki, totemistik e'tiqodga ko'ra, reinkarnatsiya va animistik e'tiqodiy qarashlarda esa ajdodlar ruhning turli shaklga kirishi tasavvur qilingan [19. C. 51]. Fikrimizcha, ushbu tasavvurlar keyinchalik jonivorlar bilan bog'liq xalqona dunyoqarashga singib ketgan. Lekin, uning kelishi marosimiy ahamiyat kasb etib, aholi tomonidan marhumlar haqqiga Qur'on tilovat qilinadi. Ayrim hollarda esa maxsus pishiriqlar tayyorlanadi va ushbu taolmlar o'tganlar ruhiga bag'ishlanadi.

Parrandalarni uyda parvarishlash bilan shug'ullanish qishloq aholisi o'rtasida qo'shimcha mashg'ulotga aylangan. Uy parrandachiligida tovuq o'rdak, g'oz, kurka kabi turlar boqiladi. Bundan tashqari, ayrim kishilar ma'lum bir qushlarni uy sharoitida ham parvarish qiladilar. Bunday qushlar sirasiga bedana va kabutar kabilarni misol sifatida keltirish mumkin. Tabiiyki, bunday ish bilan shug'ullanganlar xalq orasida ushbu mashg'ulot nomi bilan atab kelinadi. Vodiy qishloqarida bedanaboz, xo'rozboz, kaptarboz, itboqar kabi nomlar bilan ataluvchi odamlar toifasi uchrab turadi. Ularning ushbu mashg'uloti aholi tomonidan qiziqush tufayli bajariladigan qo'shimcha ish hisoblanadi.

Zardushtiylikda tovuq – quyosh ramzi hisoblansa, islomda esa "Jannat qushi", "Baxt qushi" sifatida gavdalanadi. Tovus va boshqa qushlar tasviri bugungi kunda ham o'zbeklardan tashqari yovmut gilamdo'zligi va turkmanlarda buyumlarni bezashda ishlatiladi. So'nggi yillardagi tadqiqotlarda "Humo" – shomonlikdagi "Umay ona" ramzi bo'lishi mumkinligi xususidagi qarashlar ham keng tarqalmoqda [20. B. 119].

O'zbek xalq an'anaviy hunarmandchiligida qush siymosi chuqur falsafiy ma'noga ega, eng ko'p qo'llanuvchi ornament hisoblanadi. Arxeolog L. Rempel qushni kishilar borliq va tabiatni his qilish siymosi ramzi, deya baholaydi. Chunki, unda kishilarning aqiy va ruhiy olami, tuyg'lari hamda dunyoqarashi aks etadi [21. B. 13–19].

Qadim-qadimda ba'zi qushlar ham O'zbekiston hududida tabarruk hisoblangan. Masalan, xo'roz, tovuq va qirg'ovul "quyosh" qushlari deb qaralgan va ular hosildorlik keltiradi deb

ishonilgan. Rivoyatlarga ko‘ra, o‘zlarini O‘g‘uzxon avlodlari deb hisoblagan o‘g‘uzlar yoki turkiy o‘g‘uzlar yomonliklardan asrovchi bobolar timsolini qushlarda ko‘rganlar. Qirg‘iy, burgut, lochin, qarchig‘ay kabi qushlar qabila a‘zolariga baraka va baxt olib keluvchi muqaddas jonzot hisoblanib, ularni otish qat‘iyan man etilgan [22. B. 33].

Turklarda suv qushlari koinotning turli qismlari – osmon, yer va suv orasidagi vositachi hisoblangan. Qarg‘idan topilgan shaman ayolning bosh kiyimini (er.avv. II asr – eramizning I asri) g‘oz va oqqush patlari bezab turgan. Qirg‘izistonda So‘nko‘l atrofidagi qoyatoshlarga o‘yib ishlangan suvda suzuvchi qushlar (balkim g‘ozlar) galasi tasviri tushirilgan. Qozoq va qirg‘iz xalqlari asotirlarida muqaddas Umay qush qiyofasida tasvirlanadi. Finn-ugor xalqlarining qadimgi turk qabilalari bilan mustahkam tarixiy aloqalari har ikkala xalqning bir xildagi qushlarni muqaddas deb bilishlarida ko‘rinadi.

O‘zbek, qozoq qirg‘iz va turkman xalqari qadimdan shu paytgacha ukki, boyo‘g‘li, burgut va lochin patlarining muqaddas kuchiga ishonadilar. Shu sababli, kichik yoshdagi o‘g‘il bolalar va qizchalarning bosh kiyimlari, beshik hamda belanchaklarini qushlar pati bilan bezaydilar. O‘rta Osiyoning o‘troq xalqari orasida qirg‘ovul, tovus va xo‘roz muqaddas qushlar deb hisoblangan [23. B. 34].

**Xulosa.** Umuman olganda, o‘zbeklarda qushlar xabarchi ramzlar sifatida asosan, xalqing qadimiy mifologik dunyoqarashlari asosida paydo bo‘lgan. Bunday obrazlar mohiyatan umumiylikka ega bo‘lsa-da, muayyan matnda o‘ziga xos poetik ma‘no ko‘lamiga ega bo‘lib keladi. Qadimgi tasavvurlarga ko‘ra, qushlar ezgu kuchlar timsoli va elchisi (g‘ozlar), aksincha, ayrimlari esa yovuz kuchlar ramzi (o‘rdak) hisoblangan. Jumladan, g‘oz eposda qadimiy rudiment ma‘no – ezgu elchi, xabarchi bo‘lsa, maqol va iboralarda ezgulik, yaxshilik mazmunini ifodalaydi. O‘rdak esa yolg‘n, bo‘hon, ma‘nolarini umumlashtirib keladi.

#### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. [https://uza.uz/posts/ekologik-muammolarni-hal-etish-strategik-vazifa\\_336097](https://uza.uz/posts/ekologik-muammolarni-hal-etish-strategik-vazifa_336097).
2. Азизов А. А. Ўзбек халқи дунёқараши тизимларида ҳайвон култи (тарихий-этнологик тадқиқот). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2022. – Б. 3.
3. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом этириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, НМИУ, 2018. – Б. 570.
4. Демидов С. М. Растения и животные в легендах и верованиях туркмен / Серия «Этнография туркмен». Вып. 1. – Москва: Старый сад, 2020. – С. 122–123.
5. Авесто: Яшт китоби / М. Исҳоқов таржимаси. – Тошкент: Шарк, 2001. – Б. 85.
6. Тюлюш А. Ч. История бытования тамговых знаков у тюрков Саяно-Алтая // Вестник Томского государственного университета. – Томск, 2016. – № 411. – С. 160.
7. Гюль Э. Ф. Поливная керамика Узбекистана / Поливная керамика Средиземноморья и Причерноморья X–XVIII вв. Том 2. – Казань-Кишнев, 2017. – С. 783.
8. Басангова Т. Г. Животные в калмыцком фольклоре. – Элиста, 2019. – С. 25.
9. Курьони Карим. “Анъом” сураси, 38-оят.
10. Dala yozuvlari. Andijon viloyati Buloqbohi tumani Nayman qishlog‘i. 2024- yil.
11. Авесто: Яшт китоби.... – Б. 100.
12. Dala yozuvlari. Andijon viloyati Buloqbohi tumani Nayman qishlog‘i. 2024-yil.
13. Dala yozuvlari. Jizzax viloyati Zomin tumani Kultepa qushlog‘i. 2025-yil.
14. Азизов А. А. Ўзбек халқи дунёқараши тизимларида ҳайвон култи (тарихий-этнологик тадқиқот).... – Б. 29.
15. Dala yozuvlari. Qoraqalpog‘iston Respublikasi To‘rtko‘l tumani Miskin qishlog‘i. 2023-yil.
16. Древные обряды верования и култы народов Средней Азии. – М.: Наука, 1986. – С. 184.
17. Dala yozuvlari. Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani Tumor qishlog‘i. 2024-yil.

18. Пайзиева М. Ўзбекларнинг анъанавий ва замонавий мотам маросимлари. – Тошкент, 2007. – Б. 42–43.
19. Басангова Т. Г. Калмыцкие сказки о животных / Общественные и гуманитарные науки. Известия ДГПУ. Т.11. – 2017. – №1. – С. 51.
20. Бобоёров Ғ. Ғарбий турк хоқонлиги давлат тузуми. – Тошкент: Yangi nashr, 2018. – Б. 119.
21. Давлатова С. Т. O‘zbek hunarmandchiligi buyumlarida zoomorf naqushlarning qo‘llanishi / International scientific journal «Global science and innovations 2020: Central Asia». – Nursultan, 2019. – В. 13–19.
22. Ёвқочев Ш. Марказий Осиё динлари тарихи. – Тошкент, 2005. – Б. 33.
23. Yuqoridagi asar... – В. 34.

# ЎТМИШГА НАЗАР

## ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ LOOK TO THE PAST

### Taqdim etilayotgan maqolalarga qo'yilgan talablar:

1. Maqolalar o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 5 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola (IMRAD) 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

### Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 5 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новый текст начинается со следующей строки, и статья состоит из (IMRAD) 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиата. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должны быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

### Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 5 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists (IMRAD) of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].